

BOSHLANG‘ICH SINFDA RUS TILINI O‘QITISHDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Sultonova Xurshidaxon Sobirxon qizi

Namangan viloyati, Kosonsoy tumani

14-sonli umumta’lim maktabining rus tili fani o‘qituvchisi

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda til o‘rganishning poydevori yaratiladigan, og‘zaki nutq, eshitish va talaffuz ko‘nikmalari shakllanadigan muhim davrdir. Shu bois bu bosqichda rus tilini o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratish zarur. Og‘zaki nutq bolalarning muloqot qilish, fikrini ifodalash, savollarga javob berish va suhbatda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Rus tilini o‘rganishda og‘zaki nutqni shakllantirish uchun o‘qituvchi turli metod va vositalardan – o‘yin, dialog, suhbat, rolli mashg‘ulotlar, audio va video materiallardan samarali foydalanishi kerak. Bu usullar o‘quvchilarda rus tiliga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi hamda tabiiy til muhitini yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshiradi. Natijada o‘quvchilar rus tilida erkin gapira olish, so‘z boyligini kengaytirish va muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning maqsadi quyidagicha ifodalanadi:

- ☐ O‘quvchilarda rus tilida sodda va to‘g‘ri gapira olish malakasini shakllantirish;
- ☐ So‘z boyligini kengaytirish;
- ☐ Muloqotga kirishish va suhbatni davom ettirish qobiliyatini oshirish;
- ☐ Eshitganini tushunish va unga javob bera olishni o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘qitish jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirish maqsadini amalga oshirish uchun tovush va talaffuz ustida ishlash, bunda

o‘quvchilarda rus tilidagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘u va intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiriladi; eshitish orqali tushunishni rivojlantirish, bunda rus tilidagi so‘z, ibora va gaplarni tinglab, ularning ma’nosini tushunish, asosiy fikrni ajrata olish malakasini shakllantiriladi; lug‘at boyligini oshirish, ya’ni yangi so‘z va iboralarni o‘rgatish, ularni og‘zaki nutqda faol qo‘llashga o‘rgatish, o‘quvchilarning so‘z boyligini bosqichma-bosqich kengaytiriladi; dialogik va monologik nutqni shakllantirish, bunda o‘quvchilarga qisqa hikoya qilish, o‘z fikrini ketma-ketlikda bayon etish, voqeani izchil so‘zlab berish ko‘nikmalarini o‘rgatiladi; muloqot madaniyatini rivojlantirish, ya’ni, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, so‘rash, javob berish, uzr so‘rash kabi odobiy nutq shakllaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish kabi vazifalar belgilab olinadi.

Boshlang‘ich sinfda og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari quyidagilardan iborat:

a) Dialog va rolli o‘yinlar

O‘quvchilarni “do‘kon”, “maktabda”, “oilada” kabi turli holatlarda gapirishga undovchi rolli o‘yinlar orqali rus tilida muloqotga jalb qilish.

b) Savol-javob mashqlari. Oddiy savollar:

- ☐ “Как тебя зовут?”
- ☐ “Сколько тебе лет?”
- ☐ “Что ты любишь?”

O‘quvchilarni qisqa va aniq javob berishga o‘rgatadi.

c) Rasmlar asosida gapirtirish

☐ Biror rasm asosida hikoya tuzish (Что делает девочка? Где находится собака?)

☐ Taqdimotlar (kichik hajmda) yoki guruhda ish olib borish.

d) Dialog matnlarini eshitish va takrorlash. Rus tilidagi qisqa suhbatlar yoki dialoglarni eshitib, ularni takrorlash. Bu orqali eshitish va talaffuz malakalari bir vaqtda rivojlanadi.

e) She‘r va tez aytishlar yodlash. Fonetikani mustahkamlash bilan birga, eslab qolish va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatadi.

4. Og‘zaki nutqni baholash mezonlari

Boshlang‘ich sinfda baholash quyidagilarga asoslanadi:

- ☐ To‘g‘ri talaffuz;
- ☐ Grammatik jihatdan to‘g‘ri gap qurilishi;
- ☐ So‘z boyligidan foydalanish;
- ☐ Gapning ravonligi va mantiqliligi.

Baholash doimiy bo‘lishi kerak, rag‘batlantiruvchi so‘zlar orqali:

“Yaxshi aytding!”, “Senga quloq solish juda yoqimli!”, “Ajoyib gap!”

5. O‘quv muhitining roli

☐ Do‘stona va interaktiv muhit yaratish o‘quvchining o‘zini erkin his qilishi og‘zaki nutq rivojiga yordam beradi.

☐ Har bir o‘quvchiga fikr bildirish imkoniyati berilishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinfda og‘zaki nutqni rivojlantirish rus tili ta‘limining poydevoridir. Shu sababli, o‘quvchilarning qiziqishlari, yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda interaktiv, o‘yinli va og‘zaki faoliyatga asoslangan darslar tashkil etilishi kerak.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Власова Н. С. Русский язык как иностранный. Базовый курс 1 (спонсорным словарем на английском и немецком языках). Учебник для детей русскоязычных эмигрантов. Типография Гутенберг, 2009. 204 с.

2. Вольнова Д. Н., Меланченко Е. А. Организация процесса обучения русскому языку как иностранному: актуальные проблемы преподавания русского

языка как иностранного, роль преподавателя и учащегося в процессе обучения // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 8.

3. Пранцова Г. В. Обучение школьников драматическому типу словесного художественного творчества на основе фантастического вымысла. // Русский язык в школе. 2001 № 5. – С.15

4. Боброва, С.В. Формирование языковой культуры на уроках русского языка / С.В. Боброва // Русский язык в школе. – 2010. – №4. – С. 9-16